

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta’limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## TAHRIR HAY'ATI:

| | | |
|---|---|---|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor | Bosh muharrir |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna | pedagogika fanlari doktori, professor | A'zo |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor | A'zo |
| Babayeva Dono Razzakovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Sadikova Shoista Akbarovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Jumanova Fotima Uralovna | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent | A'zo |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Bafayev Muxiddin Muxammatovich | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Ne'matov Shuhrat Ergashovich | pedagogika fanlari nomzodi | A'zo |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) | A'zo |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |

Muassis: **"Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

Hamkorlarimiz: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) ..... 5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari ..... 9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna

Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов ..... 13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qo'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati ..... 16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati ..... 19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi

Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях ..... 23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна

Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni ..... 27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ..... 33
Sharofiddinova Madinabonu

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish ..... 36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi

Modern and High-Quality Methods in Schools ..... 40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna

Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ..... 44
Дурдона Туракулова

Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей ..... 48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна

Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish ..... 52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi ..... 55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar ..... 59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari ..... 62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi

The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth ..... 65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich

Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv ..... 67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna

Hayot sifatini oshirish – davr talabi ..... 70
Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna

Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish ..... 73
Rizayeva Gulnora Botirovna

О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении ..... 80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна

Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati ..... 84
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari ... 87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li

Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе “Руководитель - Подчиненный” ... 90
Назирова Лола Васижановна

Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari ... 94
Raxmonova Nigina Aminjonovna

Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich ... 97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash ... 100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi ... 105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.

Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari ... 110
Kudratova Lola Ravshanovna

Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде ... 113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна

Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish ... 117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi

Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова “Отверзи мне двери” и Улугбека Хамдама “Бунт и смирение” ... 122
Чернова Татьяна Алексеевна

Role of Innovation in Economic Development ... 125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni ... 128
Xasanova Nilufar Botirboyevna

Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish ... 133
Artikbayeva Aziza Abrorovna

O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari ... 136
To'laganova Ziyoda

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish ... 141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak ... 144
Rizayeva Xusniya Ubayevna

Mehrjon bayrami ... 148
Uralova Momogul Karimberdinovna

Bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash ... 151
Sadikova Shoista Akbarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilingual rivojlanish ... 154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi

Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо ... 157
Эргашева Камола Алишеровна

Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children ... 161
Gaukhar Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar

# BO'LAJAK TARBIYACHILARNI TA'LIM-TARBIYAVIY JARAYONLARGA KASBIY TAYYORLASH



Sadikova Shoista Akbarovna
Nizomiy nomidagi TDPU
"Maktabgacha talim metodikasi"kafedrasi professori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim мактабгача yo'nalishlari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar texnologiyalar va ijtimoiy bilimlar integratsiyasidan foydalanishning pedagogik va psixologik aspektlari yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, jarayon, ta'lim-tarbiya, tarbiyaviy jarayon, faoliyat.

**Abstract:** This article highlights the pedagogical and psychological aspects of the use of technology and the integration of social knowledge into the educational process in preparing students of higher educational institutions of preschool education for professional activity.

**Key words:** preschool education, educational process, activity.

**Аннотация:** В данной статье освещаются педагогические и психологические аспекты использования технологий и интергатsии социальных знаний в образовательный процесс при подготовке студентов высших образовательных учреждений направления дошкольного образования к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, учебно-воспитательный процесс, деятельность.

1. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiimoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligi va 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilishni taklif etganida ana shu ulug'vor maqsadlar bor.
2. "Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizdan faol bo'lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so'rayman", – dedi davlat rahbari.
3. Bu muammolarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu talablar pedagogika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo'lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" fani maktabgacha ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fani ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.
4. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va MTT sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi.
5. "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatini, ya'ni, shu yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.
6. Didaktika (yunon. "didaktikos" – o'rgatuvchi, didasko – o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi,

mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

7. Tarbiya nazariyasi – ta'lim-tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.
8. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish obyekt sifatida faoliyat jarayoni belgilaydi.
9. "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish"ning predmeti – maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalaridan iborat.
10. "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" jarayoni bola shaxsini shakllantirishdek, ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi.
11. Jarayonni maqsadi va vazifalarini belgilashda ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.
12. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Bu jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:
13. ■ Bola shaxsini har tomonlama uyg'un rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonning mohiyatini o'rganish;
14. ■ Bolani har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash;
15. ■ Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish;
16. ■ MTT, ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash;
17. ■ Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
18. ■ Tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish;
19. ■ Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;
20. ■ O'qitish, tarbiyalashning samarali texnologiyalarini yaratish.
21. ■ Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.
22. Ma'lumki, har bir jarayon o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etishning asosiy kategoriyalari maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsi kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi.
23. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: ta'lim (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.
24. ■ Ta'lim – tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: bilim, ko'nikma va malaka.
25. ■ Bilim – tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
26. ■ Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
27. ■ Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
28. Ta'lim ikki tomonlama tavsifga ega bo'lib, o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.
29. ■ O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma, malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.
30. ■ O'qish – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir.
31. ■ Tarbiya – muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.
32. "Tarbiya" tushunchasi "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish "ning asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.
33. Tor ma'noda tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.
34. ■ Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma, malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.
35. ■ Shakllanish – ta'lim-tarbiyaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, ko'pincha "shaxsning shakllanishi" tarzida ishlatiladi. Shaxsning shakllanishi – ijtimoiylashuv, tarbiya va o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. Shakllantirish – "aniq shaklga kiritish, tugallanganlik" ma'nolarini bildiradi.
36. ■ Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga aytiladi. Rivojlanish – yangi sifat holatiga o'tish, harakat va o'zgarishlar jarayoni. Maktabgacha ta'lim –

tarbiyaning rivojlanishi haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda rivojlanishning o'ziga xosliklari va qonuniyatlari), individual (rivojlanishning individual o'ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

37. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum ta'lim-tarbiyaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi.
38. "Maktabgacha ta'lim yo`nalishi talabalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarini tashkil etish" rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.
39. Xulosa qilib aytganda shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.
40. Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tizimli-metodologik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.
41. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayondir.
42.
43. Foydalanilgan adabiyotlar:

44. 1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz https://president.uz/uz/ 06.11.2021.
45. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020. https://president.uz/uz/.
46. 3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: 2009
47. 4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. –T:. "Tafakkur sarchashmalari", 2013
48. 5. Yakubova Z. Z. (2022, October). Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishi va tarbiyasiga professional yordam ko'rsatishda oila, mahalla va maktab bilan hamkorlik ishlari.//In International Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
49. 6. Sadikova Sh. Types And Content of Picture Activity in Preschool Educational Organizations.// Science and Innovation.2022.760-764.
50. 7. Sadikova Sh. Pedagogical Innovation Cluster of Activity of Centers in Preschool Education. //Science and Innovation. 2022. – 1138-1143

**Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 2-3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**